Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромов Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Yuldashev Sherali Xayitovich

CamDVMChBU assistenti



Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich

CamDVMChBU assistenti

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy xarajatlar hisobini yuritishda boshqaruv hisobining o'rni, qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot tannarxni kalkulyatsiya qilish usullari, sohaviy xususiyatlari, xarajatlar hisobini boshqarishda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish sohasida o'zaro bog'liqlik jihatlari yuritib berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, asosiy faoliyat xarajatlari, moddiy xarajatlar, mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya qilish usullari.

Abstract: The article describes the role of management accounting in the accounting of material costs in agricultural enterprises, the methods of calculating product prices in agricultural enterprises, industry characteristics, the interdependence aspects of accounting and taxation in the management of cost accounting.

Key words: management account, main activity costs, material costs, product price, calculation methods.

Аннотация: В статье описана роль управленческого учета в учете материальных затрат в сельскохозяйственных предприятиях, методы расчета цен на продукцию в сельскохозяйственных предприятиях, особенности отрасли, аспекты взаимозависимости бухгалтерского и налогового учета в ведении учета затрат.

Ключевые слова: управленческий учет, затраты основной деятельности, материальные затраты, себестоимость продукции, методы расчета.

KIRISH

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida respublikamizda ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirish aholining hayot farovonligini yaxshilash, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, inflyatsiya sur'atini pasaytirish, jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv kabi masalalarni hal qilish asosida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ish bajarish sohalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatini tashkil etishida albatta, xarajatlar bilan bevosita bog'liqdir. qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini yuritishda asosiy faoliyat xarajatlarini qilishiga majbur bo'ladi. Umuman olganda har bir xo'jalik subyektlarning munosabatlar jarayonini asosiy faoliyat tashkil etadi, shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri tashkil etilish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.



ADABIYOTLAR SHARHI

Sohaga doir iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish bo'lmagan xarajatlar hamda tannarx tushunchalari qo'llanilgan. Umumiy iqtisodiy ma'noda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tushunchalariga Sh. Shodmonov tomonidan quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Firma o'z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xom ashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozorida ishchi kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va b. xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi"

M. Boltaboyev "TANNARX, mahsulot tannarxi – korxonaning maqsulot ishlab chiqarish. va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarning pul shaklidagi ifodasi. Tovar ishlab chiqarishda tannarxning muhim elementlari – chetdan olinadigan xom ashyo, asosiy materiallar, elektr-energiya resurslari chiqimlari; asosiy va qo'shimcha ish haqi; ijtimoiy sug'urta ajratmalari; amortizatsiya ajratmalari va b. sarf xarajatlari", – deb ta'rif keltiradi.

Rossiya Soliq Kodeksida (1998) quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Tannarxni belgilovchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan tabiiy resurslar, xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari va ekspluatatsiya bo'yicha boshqa xarajatlar, shuningdek, ishlab chiqarish bo'lmagan xarajatlarning qiymatidan tashkil topadi".

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda barcha sohalarga keng ko'lamli imkoniyatlar berilmoqda shu jumladan sanoat ishlab chiqarish korxonalar faoliyatini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni davom ettirilishi, qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiyotda o'rnini barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ularning bir maromda faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishlarida xarajatlari hisobini to'g'ri tashkil etish va mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llarini ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslanganligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida to'laqonli boshqaruv hisobining yo'lga qo'yilishi bo'lib, uning o'zagi tannarxni hamda xarajatlarni shakllanishini boshqarishdir. Xarajatlarni shakllantirish va tannarx – boshqaruv hisobining markaziy negizida qurilish korxonalarining hisobini yuritish hozirgi uning eng dolzarb muammolaridandir. qishloq xo'jalik korxonalarida tannarxni har bir faoliyat va mahsulot turlari, sotish bozorlari, mintaqalar hamda xaridorlar didlari bo'yicha kalkulyatsiya qilinishi bugungi kunning davr talablaridan bo'lib hisoblanadi. qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy xarajatlarni shakllantirish tannarxni kalkulyatsiya qilish usullari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu kalkulyatsiya qilish usullarining muhim xususiyatlariga, jumladan, sohaviy xususiyatlariga ham bog'liqdir. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to'g'ri tashkil etish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ilmiy asoslanganligi ularning nazariy jihatlari qay darajada ishlab chiqilganligiga bog'liq.

Xarajatlar hisobining nazariyasi va amaliyotida birgina "tannarx" tushunchasigina mavjud emas. Uning mazmuni quyidagi omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin:

- mahsulotning tayyorlik darajasi va uning sotilishiga qarab, yarim tayyor mahsulot, omborda saqlanayotgan mahsulot va sotilgan mahsulot tannarxlari;
- mahsulot miqdoriga qarab, mahsulot birligining, butun ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi;
- joriy xarajatlarni kalkulyatsiya obyektining tannarxiga kiritish to'liqligiga qarab, to'liq amaldagi tannarx va cheklangan tannarx;
- tannarxni shakllantirishning tezkorligiga qarab amaldagi yoki me'yoriy, rejali tannarx farqlanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar tarkibida moddiy xarajatlar salmoqli o'rinni egallaydi, shu sababli moddiy xarajatlar tarkibini kalkulyatsiya qilish orqali qaysi bir xarajatlarga oshiqcha yo'l qo'yilayotganligini aniqlab shu xarajatlarni qisqartirish choralarini ko'rish, korxonalar faoliyatini boshqarish orqali foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechimini topish alohida o'rin egallaydi. Korxonalarda xarajatlar hisobini boshqarishda buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish sohasida amal qiladigan qonunchilik doirasida foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani o'zgartirishga sabab bo'ladi. Shu munosabatda "tannarx" tushunchasini turli nuqtayi nazar asosida me'yoriy maromga solish, shakllantirish tamoyillari, tasniflashning turlicha usullarini qo'llaniladi.

Xo'jalik ichki hisob-kitoblari va nazoratini tashkil etish maqsadida ishlab chiqarish sarflarining hisobi mahsulotning turlariga ko'ra; sarflarning yuzaga kelish joyiga ko'ra; xarajatlarning turlariga ko'ra amalga oshiriladi.



Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) tannarxini hosil etuvchi iqtisodiy unsurlarning barcha korxonalar va tashkilotlar uchun yagona nomenklaturasi belgilangan buni 1- jadvaldan ko'rish mumkin.

1-jadval: Moddiy xarajatlarni aniqlashda iqtisodiy elementlari va moddalari bo'yicha turkumlanishi

Iqtisodiy elementlari bo'yicha	Kalkulyatsion moddalari bo'yicha
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Xom ashyo
	Yoqilg'i
	Elektr quvvati
	Ehtiyot qismlar
	Idishlar va hakoza
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Asosiy ish haqlari
	Qo'shimcha ish haqlari
	Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta'minot bo'limiga
	Mehnat birjasiga
	Kasaba uyushmasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari	Asosiy vositalarning eskirishi
	Nomoddiy aktivlarning eskirishi
	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning ijara haqlari
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar
	Soliqlar, yig'imlar va hakoza

Qishloq xo'jalik korxonalarda moddiy xarajatlar hisobiyuritiladigan yo'nalish-ishlab chiqarish xarajatlari-ning alohidalangan va maqsadli hisobini talab etuvchi faoliyat sohasidir. Ya'ni buxgalteriya ma'lumotlarining foydalanuvchilari biror sarf-xarajat haqida nimanidir bilib olmoqchi bo'lsalar, aynan shu narsaning o'zi hisob yo'nalishi bo'ladi. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobining yo'nalishiga mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi, sotish bo'limi ta'minoti sarflari kalkulyatsiyasi, ya'ni amalda biron-bir mansabdor shaxsning ishlatilgan xaziralarni baholash zaruratini yuzaga keltiradigan holatlar misol bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy xarajatlar tasnifi sarf-xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarishga nisbatan turlicha ekanligini aks ettirish va ularning turlarini belgilashga imkon beradi. Buxgalteriya ma'lumotlarini tasniflashning ko'pgina sxemalari mavjudligiga qaramay, ulardan birini namuna sifatida ajratib ko'rsatish mumkin emas. Tasniflash sxemasi ma'lumotning maqsadiga bog'liqdir.

Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan tartibga solinadi. Ushbu hujjatda mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlar ro'yxatining o'ta muayyan ta'rifi bilan ajralib turadi. Xalqaro standartlarga mos keladigan tannarx moddalarini tarkiblashtirish nafaqat hujjatlarni shunday turdagi umumiy me'yorlarga yaqinlashtiradi, balki ehtimol, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar uchun foydali ham bo'ladi. Qishloq xo'jalik korxonalarning moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish moddiy sarflari;
- ishlab chiqarish turidagi mehnat haqi sarflari;
- ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan ijtimoiy sug'urtalashga ajratmalar;
- ishlab chiqarish maqsadidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish maqsadidagi boshqa sarflar.



Qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy xarajatlarni ishlab chiqarishga sarfi hisobini tashkil etishga faoliyat turlari, ishlab chiqarishning hamda ishlab chiqariladigan mahsulotning turi, korxonaning boshqaruv tuzilishi va o'lchamlari ta'sir ko'rsatadi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) tannarxini hosil etuvchi iqtisodiy unsurlarning barcha korxonalar va tashkilotlar uchun yagona nomenklaturasi belgilangan.

Ba'zi mualliflar ishlab chiqarish sarflarini umumiy iqtisodiy va rejalihisob belgilariga ko'ra tasniflashni taklif etadilar. Qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy xarajatlar tasnifi sarf-xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarishga nisbatan turlicha ekanligini aks ettirish va ularning turlarini belgilashga imkon beradi. Buxgalteriya ma'lumotlarini tasniflashning ko'pgina sxemalari mavjudligiga qaramay, ulardan birini namuna sifatida ajratib ko'rsatish mumkin emas. Tasniflash sxemasi ma'lumotning maqsadiga bog'liqdir. Ingliz olimi Alborov, Rolan A. sarflar hisobining quyidagi yo'nalishlarini va ularning ehtimoliy tasniflarini taklif etadi.

Hisob tizimi sarflarni ma'lum toifalarga ko'ra tasniflab yig'adi. Sarflarning bu toifalari hisob yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanadi. Buxgalterlar mahsulot tannarxiga kiruvchi sarflar va hisobot davri xarajatlarini tasniflaydilar. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar qayta sotish uchun sotib olingan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarga oid sarflar kiritiladi. Korxonada bu sarflar tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini, uning sotilishi paytigacha belgilashda hisobga olinadigan mahsulot birligining tannarxi bo'ladi. Mahsulot sotilgandan keyin foydani hisoblash uchun bu sarflar sotishdan tushgan tushumlar bilan qiyoslanadi.

Hisobot davrining xarajatlari zaxiralarni baholashda hisobga olinamaydigan sarflar hisoblanadi. Shuning uchun ular sodir bo'lgan davridayoq xarajat sifatida tan olinadi. Demak, hisobot davrining sarflari va zaxiralarni baholashda hisobga olinadigan sarflar bilan umuman bog'lanmasligi lozim. Korxonada barcha ishlab chiqarish moddiy xarajatlari mahsulot tannarxiga, noishlab chiqarish xarajatlari esa hisobot davri xarajatlariga kiritiladi. Ma'lumotning maqsadi va uni taqdim etishning davriyligi mezonni ham ajratib ko'rsatilishi lozim. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar uch asosiy yo'nalishni aniqlashda qo'llaniladi. Demak, ma'lumot maqsadi va uni taqdim etishning davriylik mezonni ham mustaqil mezon sifatida alohida ajratib ko'rsatilishi kerak.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida yo'qotishlarini va zararlarini kamaytirishga intilishi zaxiralarni aniqlashga, xususan, mehnat, moddiy va xom ashyo zaxiralaridan oqilona foydalanishga e'tibor qilish talab etiladi. Chunki moddiy sarflarni qisqartirishga alohida e'tibor berish lozim, bunda barcha ishlab chiqarish sarf-xarajatlarining 50-80% qismini tashkil etadi. Moddiy sarflarning qiymati chetdan sotib olingan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiyaning barcha turlari, sotib olinadigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, boshqa korxonalar bajargan ishlab chiqarish turidagi ishlar va xizmatlar, moddiy zaxiralarning tabiiy kamayish me'yorlari doirasida kamomadi oqibatidagi yo'qotishlar qiymatidan tarkib topadi. Bundan tashqari, moddiy sarflar tarkibiga uskunalar, jihozlar, laboratoriya uskunalari va asosiy fondlarga kiritilmaydigan boshqa mehnat vositalarining hisoblangan eskirishi qiymatlari ham kiradi.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ishlab chiqarishning o'ziga xosligi sarflar tarkibini belgilaydi. Bunda ba'zi sarflar kata hajmga ega, demakki, ahamiyatliroq, boshqalari esa kam ahamiyatli, shuning uchun boshqalarining tarkibida yiriklashtirilgan holda hisobga olinishi mumkin. Shu sababli, ishlab chiqarish sarflarini hisobga olishni tashkil qilish mezonini ajratib ko'rsatish lozim.
2. Avvalroq o'tkazilgan sarflar tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, tannarxning darajasiga eng ko'p ta'sir etuvchi quyidagi sarflar mavjud: xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va elektr energiyasi sarflari. Demak, bu holda "ahamiyatli sarflar"ni ushbu sarflar turlariga ko'ra farqlash lozim.
3. Qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy xarajatlarning tasniflanishini shakllantirishni ta'minlovchi mezonlar sxemasi qo'shma korxonalar turlari uchun mos keladi. Lekin, Qishloq xo'jalik korxonalar faoliyatining o'ziga xosligi uning tashkiliy tuzilishi va zamonaviy sharoitlarda ishlash maqsadlari sarflarni boshqarishni, demakki, korxona faoliyatining natijalariga ta'sir etuvchi boshqa omillariga e'tibor qaratish kerak.
4. Qishloq xo'jalik korxonalar hisob tizimini tashkil etishda ushbu maqomga ega korxona xususiyatlarini inobatga olish, qurilish korxonalarida xarajatlar hisobini samarali boshqarish muhim omillardan biridir. Bugungi kunda esa, qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobini yuritishda me'yoriy hujjatlar va korxonadagi amaliy ma'lumotlarga asoslangan holda takomillashtirishni talab etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh. M. Mirziyoyev "2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi" Xalq so'zi gazetasi. 2017-y. 16-yanvar.
2. D. Qudbiyev. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish. Bozor, pul va kredit". –T.: 2005 y. 15 b.
3. O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. –T.: 1999-y.
4. Алборов, Ролан А. Бухгалтерский управленческий учёт (теория и практика) / Р. А Албаров. – М.: Издательство "Дело и Сервис" 2005. – 244 с.
5. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob.–T.:Moliya, 2002 y. 672-bet.
6. Иштурдиев, X. A. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
7. Gaybullayev, R. M., & Ishturdiyev, X. (2023). Xo'jalik yuritish subyektlarida moliyaviy natijalar hisobi va auditini takomillashtirish. World of Science, 6(4), 345-351.
8. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). Improvement of Accounting and Audit of Financial Results in Business Entities. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.
9. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 30-32.
10. Yorbekova, D., & Raximova, U. (2023). Modern Foundations of Teaching Economics in University. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 3(2 Part 4), 173-176.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.